

HAR XIL GENOTIPDAGI QIZIL CHO'L ZOTLI SIGIRLARNING RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI

Namozov M., Baxodirov A. *magistrler,*

Abdusattorova V. Poletayev A. – *talabalar, Suyunova Z.* – *q.x.f.f.d. (PhD)*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti*

Annatotsiya: *Ushbu maqolada, zamonaviy ilg'or naslchilik fermer xo'jaliklaridan biri Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumaniga qarashli naslchilikka ixtisoslashgan "Baxt" fermer xo'jaligida urchitilayotgan qizil cho'l zotli sigirlari hamda ular angler zotli buqalari bilan chatishtirish natijasida olingan duragaylarining eksteryer ko'rsatkichlari, ya'ni tana o'lchamlari va tana tuzilish indekslari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Ekstteryer, tana o'lchamlari, tana tuzilish indekslari, qizil cho'l, angler, genotip, zot, mahsuldorlik.*

Mavzuning dolzarbliji. Mamlakatimizning chorvachilik tarmog'i, Respublika xalq xo'jaligida ustivor yo'nalishda bo'lib, qishloq xo'jaligini ajralmas qismidir. Chorvachilikning asosiy tarmog'i qoramolchilik hisoblanib, aholi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda muhim o'rinn tutadi. Ishlab chiqarilayotgan sut va go'shtning asosiy qismi shu tarmoqdan olinib yetishtiriladi.

Hozirgi kunda respublikaning barcha toifadagi xo'jaliklarida 14,1 mln bosh qoramollar urchitishladi. Shundan 9 ga yaqin rejali qoramol zotlar bo'lsa, ularni genofondini takomillashtirish maqsadida import yo'li bilan xorij mamlakatlaridan olib kelingan: golshtin, simmental, angler va boshqa zotlar ham keltirilgan bo'lib, chatishtirish natijasida har xil genotipli ko'p sonli duragay hayvonlar olingan. Ularni mahsuldorligiga va sifatiga, irlsiy hamda paratipik omillarta'sirin o'rganib tahlil qilish, tanlangan mavzuni dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot materiallari va uslublari. Bizning ilmiy -tadqiqot ishlarimizning tajriba qismi, Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumaniga qarashli naslchilikka ixtisoslashgan "Baxt" fermer xo'jaligida olib borildi. Biz o'z tadqiqotlarimizda sof zotli qizil cho'l va ushbu zotni sigirlarini angler zotli buqalar bilan chatishtirish natijasida olingan har xil genotipli duragay sigirlaridan, har bir guruhga 10 boshdan jami 30 bosh birinchi tug'um sigirlari tanlab olindi. I guruh qizil cho'l zoti (sof zotli), II guruh qizil cho'l va angler F₁ bug'in, III guruh qizil cho'l va angler F₂ bug'in. Tahliliy ma'lumotlar Zootexniyada umum qabul qilingan usullar yordamida o'rganildi.

Tadqiqot natijalari. Tajriba guruhidagi sigirlarni oziqlantirish va va saqlash sharoiti bir xil bo'lib, bir xil tipli ozuqa bilan oziqlantirildi.

Tadqiqot ishining uslubiga binoan turli xil genotipli qizil cho'1 zotli sigirlarni ekestererini o'rgandik.

Bizga ma'lumki, qoramollarni ekesteryer ko'rsatkichlarini o'rganish, ularning tana tuzilishi to'g'risida aniq va to'g'ri ma'lumot beradi.

Qoramolning ekstteryeri organizmning irsiy xossalari va va tashqi muhit sharoiti ta'sirida shakllanib boradi. Shu ekesteryeriga qarab uning ichki xususiyatlari to'g'risida fikr yuritish mumkin. Shunga ko'ra, hayvonlarni tashqi ko'rinishiga qarab baholash sigirlarning afzalliliklari va kamchiliklarini, sog'ligi, konstitutsiyasining baquvvatligi, zoti va mahsuldarligining yo'nalishini aniqlash usullaridan biri hisoblanadi.

Ekstteryer ko'rsatkichlarini aniqlashning eng asosiy uslubi sigirlarni tanasidan o'lchamlar olish hisoblanadi. Shuning uchun ham biz, o'z tadqiqotlarimizda, muhim bo'lgan 8 ta tana o'lchamlarini olib, natijalarini qo'yidagi 1-jadvalda keltirdik.

Tajriba guruhidagi sigirlarning tana o'lchamlari, sm (n=10)

| Tana o'lchamlari | Guruuhlar | | | | | |
|-----------------------------------|------------|------------------|------------|------------------|------------|------------------|
| | I | | II | | III | |
| | X±Sx | S _v % | X±Sx | S _v % | X±Sx | S _v % |
| Yag'rin balandligi | 124,7±0,65 | 1,13 | 126,2±0,77 | 1,21 | 126,9±0,87 | 1,23 |
| Dumg'aza balandligi | 126,5±0,71 | 1,64 | 127,9±0,82 | 1,29 | 128,7±0,94 | 1,31 |
| Ko'krak chuqurligi | 68,6±0,53 | 2,97 | 70,4±0,65 | 2,24 | 71,6±0,71 | 2,23 |
| Ko'krak kengligi | 48,6±0,49 | 3,21 | 50,0±0,57 | 2,38 | 51,3±0,63 | 2,39 |
| Ko'krak aylanasi | 194,1±0,87 | 1,47 | 197,4±0,95 | 1,27 | 198,3±0,99 | 1,28 |
| Gavda qiya uzunligi | 145,0±0,70 | 1,11 | 146,8±0,79 | 1,15 | 147,8±0,97 | 1,17 |
| Yonbosh suyak cho'qqilar kengligi | 48,7±0,51 | 2,43 | 50,3±0,63 | 2,21 | 51,2±0,64 | 2,24 |
| Poycha aylanasi | 19,0±0,14 | 2,38 | 19,3±0,18 | 2,87 | 19,5±0,17 | 2,89 |

Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadi, I tajriba guruhidagi sigirlarga nisbatan II va III tajriba guruuhlaridagi sigirlar, yag'rin balandligi bo'yicha tegishlicha: 1,5 – 2,2 sm ga; ko'krak chuqurligi bo'yicha 1,8 – 3,0 sm ga; ko'krak kengligi bo'yicha 1,4 – 2,7 sm ga; ko'krak aylanasi bo'yicha 3,3 – 4,2 sm ; gavda qiya uzunligi bo'yicha 1,8 – 2,8sm ga; yonbosh suyak cho'qqilar kengligi bo'yicha esa 1,6 – 2,5 sm ga ustivorlik qilishgan.

Biz tajribalarimizdan olingen tana o'lchamlari asosida, tadqiqot guruuhlaridagi sigirlarni tana tuzilish indekslarini hisoblab aniqladik, chunki, hayvonlarning tana tuzilishi

to‘g‘risidagi to‘g‘ri ma’lumotni aynan tana tuzilish indekslarini aniqlash orqali bilish mumkin.

Tana tuzilish indekslar ko‘rsatkichlarini quyidagi 2-jadval ma’lumotlaridan tahlil qilish mumkin. Ma’lumki, turli indekslar har xil maqsadlar uchun aniqlanadi. Sigirlarning konstitutsiyasi va eksteryerini hamda tananing umumiy rivojlanganligini ifodalovchi quyidagi indekslarni aniqlash muhim hisoblanadi.

2-jadval

Tajriba guruhidagi sigirlarning tana tuzilish indekslari, %

| Tana tuzilish indekslari | Guruuhlar | | |
|------------------------------------|-----------|-------|-------|
| | I | II | III |
| <i>Uzunoyoqlilik</i> | 44,9 | 44,2 | 43,5 |
| <i>Cho ‘zinchoqlik yoki format</i> | 116,2 | 116,3 | 116,4 |
| <i>Ko ‘krakdorlik</i> | 70,8 | 71,0 | 71,7 |
| <i>Tos-ko ‘krak</i> | 99,7 | 99,2 | 100,4 |
| <i>Zichlilik yoki kompakt</i> | 133,8 | 134,5 | 134,3 |
| <i>Suyakdorlik</i> | 15,2 | 15,2 | 15,3 |

Uzunoyoqlilik indeksi sigirlarni oyoqlarining nisbiy uzunligini ifodalaydi. Sut yo‘nalishidagi sigirlarda bu indeks yuqori darajada bo‘lib, yoshi o‘tishi bilan kamayib boradi. Cho‘zinchoqlik yoki format indeksi sigirlar tanasining uzun yoki qisqaligini ko‘rsatadi va yosh o‘tishi bilan ortib boradi. Tos-ko‘krak indeksi ham yosh o‘tishi bilan ortib boradi. Ko‘krak indeksi ko‘krakning qanchalik darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi va yosh o‘tishi bilan ortib boradi. Zichlik indeksi tirik vazn bilan bog‘liq bo‘lib, uning ortib borishini ifodalaydi. Suyakdorlik indeksi esa suyak sistemasini rivojlanganligini harakterlaydi.

Bizning tajribamizdagi sigirlarning uzunoyoqlilik indeksi 44,2-44,9 % oralig‘ida bo‘ldi. Cho‘zoqlilik, ko‘krakdorlik, tos-ko‘krak, zichlik va suyakdorlik indekslari shunga mutanosib ravishda: 116,2-116,4; 70,8-71,7; 99,2-100,4; 133,8-134,5 va 15,2-15,3 % oralig‘ida bo‘lgan.

Maxsus tadqiqotlarda olingan bu ma’lumotlar U.N.Nosirov va boshqalar (2012), M.E.Ashirov (2017) ko‘rsatkichlariga mos kelishi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, olingan natijalarning tahlili, tajriba guruuhlaridagi sigirlarning yaxshi rivojlanganligini va mutanosib tana tuzilishga ega ekanligini, mahsuldorlik yo‘nalishi bo‘yicha esa sut xiliga mansubligini ko‘rsatdi. Bunda III tajriba guruhidagi sigirlar, I guruh sigirlariga nisbatan biroz ustivorlik qilishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirov M.E. Sutdor qoramollar seleksiyasi Toshkent “Navro‘z” 2017. 379-b.
2. Nosirov U.N., Dosmuxamedova M., Shakirov Q., Xojimuratov Sh. Vengriya va Xitoy golshtin sigirlarining rivojlanishi, eksteryer xususiyatlari va sut mahsuldorligi. // “Zooveterinariya”, №5-6, 2012. 36-37 b.
3. Suyunova, Z. B., & Ergasheva, N. S. (2023). GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLARNING GEMATOLOGIK KO ‘RSATKICHLARI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(11), 55-59..
6. Nendissa, D. R., Alimgozhaevich, I. K., Sapaev, I. B., Karimbaevna, T. M., Bakhtiyorovna, S. Z., Abdullah, D., ... & Sharifovna, A. G. (2023). Sustainable livestock grazing in Kazakhstan practices, challenges, and environmental considerations. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 21(4), 977-988..
7. Суюнова, З. Б., Намозов, М., Исломова, Ў., Рахматова, Д., & Эшмўминова, М. (2023). ГОЛШТИН ЗОТЛИ СИГИРЛАРИНИНГ СУТ МАҲСУЛДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ЭТОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРГА БОҒЛИҚЛИГИ. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, 137-143..
8. Raimova, F., Yakhaev, B., & Suyunova, Z. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЗОВАНИЯ В РАЦИОНЕ ДОЙНЫХ КОРОВ КОРМОВОЙ ТЫКВЫ СОРТА СУТОФЕНТОВ, УНИВЕРСАЛНОЙ ПРОБИОТИКОВОЙ ДОБАВКИ “ПРОБИОКОРМ” И ПРЕМИКСА “NOVAMILK”. *Стати ssuv. uz*, 3(3).
9. Yaxyayov, B. (2022). ВЛИЯНИЕ КОМПЛЕКСНОЙ КОРМОВОЙ ДОБАВКИ НА ПЕРЕВАРИМОСТЬ ПИТАТЕЛЬНЫХ ВЕЩЕСТВ ПРИ ОТКОРМЕ КАРАКУЛЬСКИХ БАРАНЧИКОВ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 2(2).
10. Lubis, S. N., Menglikulov, B., Shichiyakh, R., Farrux, Q., Khakimboy Ugli, B. O., Karimbaevna, T. M., ... & Jasur, S. (2024). Temporal and spatial dynamics of bovine spongiform encephalopathy prevalence in Akmola Province, Kazakhstan: Implications for disease management and control. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 22(2), 431-442.
12. Mirsaidov, X. S., Maxamatova, D. A., To’xtayeva, L., & Suyunova, Z. B. (2022). SOG ‘IN SIGIDLAR SUT MAHSULDORLIGINI OSHIRISHDA RATSION STRUKTURASINI OPTIMALLASHTIRISH VA QO ‘SHIMCHA OZUQALAR DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 808-811.
13. Суюнова, З., Номозов, М., Боходиров, А., & Раимова, Ф. (2023). Turli etologik tipdagи sigirlarning laktatsiya faoliyati. *Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов*, 1(1), 296-300.
14. Сулейманова, М. К., Суюнова, З. Б., Нортшева, М., & Бердикулов, Ф. Ш. (2024). РОСТ И РАЗВИТИЕ ПОТОМСТВА ОВЕЦ РАЗНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ

ТИПОВ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ МОЛОЧНОСТИ МАТОК. *International Journal of Formal Education*, 3(3), 361-366.

15. Yaxyayev, B. S. (2023). GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLARGA OZUQAVIY QO 'SHIMCHALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 183-190.
16. Hamrayeva, O. F., & Yo'ldasheva, F. R. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASIDA EKOLOGIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISH. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 37-40.
17. Hamrayeva, O. F., & Boltaboyev, N. (2023). TA'LIM JARAYONLARIDA O'QUVCHILARDA KOMUNIKATIV KOMPITENTLIKNI TAKOMILLASHTRISH. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 41-45.
18. Juraali o'g'li, F. N. (2023). ABDURAHMON JOMINING TALIMIY AXLOQIY QARASHLARI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(1), 48-53.